

## SULTON HUSAYN MIRZO DAVRIDA KURASH HAQIDA

Jurayev Sherzod Norovich

Oreintal Universiteti katta o‘qituvchisi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.1564567>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Sulton Husayn Mirzo davrida kurash san’atining rivojlanishi, uning ilmiy asoslari va yirik shaxslar – xususan, Pahlavon Muhammad Abusaid va Darveshmuhammad kabi kurashchilarining faoliyati yoritilgan. Muallif ushbu shaxslarning nafaqat jismoniy kuchi, balki ilm-fan sohasidagi salohiyati, Alisher Navoiy kabi buyuk shoirlar va Sulton Husayn Mirzo kabi hukmdorlar tomonidan tan olinganligini ta’kidlaydi. Kurash bo‘yicha yozilgan kitoblar, mashqlar va tayyorgarlik uslublari haqida ma’lumotlar keltiriladi. Maqola orqali kurash san’ati faqat jismoniy faoliyat emas, balki ilmiy va madaniy merosning bir qismi sifatida namoyon bo‘ladi.

**Kalit so‘zlar:** Sulton Husayn Mirzo, Pahlavon Muhammad Abusaid, Darveshmuhammad, kurash san’ati, Hirot, Alisher Navoiy, ilm-fan, madaniyat, tarixiy shaxslar, jismoniy tayyorgarlik, kurash tarixi.

**Аннотация.** В статье рассматривается развитие искусства борьбы в период правления султана Хусайна Мирзы, а также его научное обоснование и деятельность выдающихся личностей, таких как Пахлаван Мухаммад Абусаид и Дарвешмухаммад. Автор подчёркивает, что эти борцы были признаны не только за их физическую силу, но и за высокий интеллектуальный уровень, который отмечали великие поэты, такие как Алишер Навои, и сам султан. В статье представлены сведения о написанных книгах по борьбе, методах подготовки и тренировках. Работа демонстрирует, что борьба в том период являлась не только физической, но и культурно-научной деятельностью.

**Ключевые слова:** Султан Хусайн Мирза, Пахлаван Мухаммад Абусаид, Дарвешмухаммад, искусство борьбы, Герат, Алишер Навои, наука, культура, исторические личности, физическая подготовка, история борьбы.

**Abstract.** This article explores the development of wrestling as a scientific and cultural discipline during the reign of Sultan Husayn Mirza. It highlights the significant contributions of notable figures such as Pahlavon Muhammad Abusaid and Darveshmuhammad, who were not only renowned for their physical prowess but also respected for their scholarly knowledge. The article emphasizes how wrestling intersected with literature, music, and religious studies, as recognized by personalities like Alisher Navoi and Sultan Husayn himself. Detailed descriptions of training methods, competitions, and literary works on wrestling illustrate how this martial art reached its peak and became an integral part of the intellectual life in Herat.

**Keywords:** Sultan Husayn Mirza, Pahlavon Muhammad Abusaid, Darveshmuhammad, wrestling art, Herat, Alisher Navoi, science, culture, historical figures, physical training, history of wrestling.

Husayn Boyqaro davridagi yirik shaxslardan biri Pahlavon Muhammad Abusaid bo‘lib, o‘z davridagi eng kuchli pahlavonlardan biri bo‘lib, ilm fan sohalarida ham mashhur bo‘lgan.

Alisher Navoiy o‘z tazkiralarida “Pahlavon Muhammadkim, ko‘p fazilat bila orastadurkim, xususan gushtigirliq fannida.

Bovujidi ulkim, ul fan oning haqqi va mulkidir, ma'lum emasdurkim, hargiz bir kimsa bu fanda andoq paydo bo'lmish bo'lg'ay. O'zga fazoyiliga ko'ra dun martabasidur va musiqiy va advor ilmining benaziridir." Navoiy hazratlari uning iqtidorini tan olish bilan birga unga bag'ishlab Astrobodda turganda ruboiy bag'ishlab yozib yuboradilar. Ushbu ruboiyda ibodatda ham saharu shomda ham sening duoing bilanmiz, seni doim yod etamiz deb yozadi. Bunga javoban pahlavon Muhammad Astrobod balki senga yaxshidir ammo biz sening Astroboddaligingdan xarobmiz deb yozadi. Uning she'rlari yuqori qadrlanganligini, hatto bir she'ri uchun Sulton Husayn Mirzo o'n ming oltin inoyat qilganligi manbada yoziladi. Mana o'sha o'n ming oltin tangali misra:

Guftamash dar olam ishq tu koram, ba g'am ast.

Guft xandon zeri lab: "g'am nest, kori alomast".

Unga dedim: Olamda ishim sening ishqing bo'ldi, g'amliman.

Lab burib kului va dedi: "hechqisi yo'q, dunyo ishi shunaqa".

Alisher Navoiyning Tazkiratush-shuaro asarining to'rtinchı majlisи aynan Pahlavon Muhammad zikri bilan boshlanib undan keyin Amir Atouollo, Mir Husayn Muammemoiy kabilarning kelishi kurashchining olimlar orasida o'rni katta ekanligidan darak beradi. Keltirilishicha Sulton Husayn majlisida movlonozoda Mullo Usmon bilan shayxulislom va qozi Nizom tezlashib qoladi. Shayxulislom dedi: bu gap Mir Sayyid Sharif va mavlono Sa'diddinning "Miftoh" ga yozgan sharhlarida bor. Mavlono Nizomiddin esa bu kitob yo'q, sharhni olib kelinglar deydi. Shunda Pahlavon hojati yo'q dedidilar va kerakli joylarini yoddan o'qiy boshlaydi. Har mavzusidan bir sahifadan o'qiydi. Majlisda g'ala-g'ovur boshlanadi. Qozi Nizomiddinning fikri isbotini topadi.

Oliy mansab egalari, Sulton Husayn hamda aslzodalar va ulug'lar yig'ilgan majlisda shayxulislom bir masalani ikki marta gapiradi. Shayxulislom ikki marta qaytardi. Bu hol shoxga yoqmaydi. Pahlavon masalani qaytaradi, Sulton Husayn mirzo masalani darhol tushunadi. Majlis tarqagach shayxulislom tashqariga chiqib, majlisda shunday ulamo shunday podsho bo'laturib, kurashchi odamning malikulkalomlik qilishi qanday bo'ladi deydi. Bu gap Sulton Husayn Mirzoga yetqaziladi. Sulton Husayn aytadiki bu majlis Shayxulislom va ulamo uchun chaqirilgani to'g'ri. Agar Pahlavon Muhammadning bu majlisda so'zlashga qobilyati va layoqati borakan, Shayxulislomning uni cheklashlari to'g'ri emas Shayxulislomga Sulton Husaynning gapi yetqazilganda akobirlar bilan buni muhokama qiladi. Oxiri uylab turib, insof bilan aytganda pahlavon Muhammadni ulamo majlisida so'zlashdan man qilmaslik kerak deydi.

Demak kurashchi deb tanilgan shaxsning olimligini ulamolar tan olgan. Pahlavon Muhammad kurash san'ati bo'yicha bir kitob yozadilar, bu kitob balog'at ilmining eng yorqin nomunasisidir deb ta'rif beriladi. Pahlavon Hofiz Sheroziyning ko'p g'azallarini yod olganligini Vosifiy aytib o'tadi. Muhammad Abusaidning jiyani Darveshmuhammad mavlono Shayx Husaynning o'n ikki mohir talabasidan biri Hikmat ismli olimning "Hidoya"ga yozgan sharhini nazmga solgan xullas ilmda ancha fozil sanalgan. Xurosonda Iroqdan bir pahlavon Hirota boraman, pahlavonlarni zo'ri bilan kurash tushaman deb aytibdi degan gap tarqaldi. Uning ismi Pahlavon Ali Rustoiy bo'lib ko'p podsholarning tavsiya xati bor ekan. Pahlavon Muhammad Darveshmuhammadni o'qishdan olib kurashga tayyorlay boshlaydi. Uning yoniga ko'ngilli yoshlardan o'ntasini olib tayyorgarlik boshlanadi.

Qoyidagi mashqlar qilinadi. 1. O'n kishini navbatma-navbat ko'tarib otish. 2. To'rt yigit birdaniga hujum qiladi. Ularning qarshiligini yengish kerak bo'ladi. 3. Bir qopni nam qumga to'ldirib qumni ko'tarib otish. 4. Qum to'ldirilgan qoplarni shiftga ilib tortib turib Darveshmuhammadga qaratib qo'yib yuborishadi, u esa joyidan qo'zg'almasdan turadi. Uch yil tinimsiz mashq qilinadi. Nihoyat o'sha mashhur polvon Iroqdan Hirotg'a keladi. Barcha pahlavonlar uni kutib olgani hadyalar bilan chiqadi. Qirq kun mehmon qilingach, Sulton Husayn Mirzo bu pahlavon bilan kim kurashga tushadi deb so'raydi. Shunda Darveshmuhammad deyilgach, u hali yoshku yana nomusimiz yelga sovrlimasin deydi. Bog'i Zag'on hovuzi quritilib, uning ichida kurash uchun jang maydoni hozirlanadi. Kurash boshlanadi, dastlab ular kiyimlarini yechganda uning qomatini ko'rkaligini ko'rib Ali Rustoiy uning oldida beo'xshov bo'lib qoladi. Bir yiqilgan polvon yana qaytib jang qilishga ruxsat so'raydi. Shunda Sulton Husayn kurash qoidasi bo'yicha uch marta kurash tushishga haqqing bor deydi. Iroqlik kurashchi mag'lubiyatga uchraydi. Sulton Husayn atrofdagilarga qarab Kim mening boshimni aziz tutishni istasa Darveshmuhammadga sovg'a bersin deydi. Shunda yuz ming dirham oltin sovg'aga tushadi. Darveshmuhammad ularning hammasini Ali Rustoiyga beradi.

Darveshmuhammad oliy nasab bo'lsada, kurash qoidasida hasabi yoki nasabiga riyo qilinmagan, ularni ko'pini lo'lilar tashkil qilganligini manbalarda yoziladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak Sulton Husayn davrida barcha ilm sohalari kabi kurash ilmi ham o'z rivojining cho'qqisiga chiqadi. Bu sohada ko'plab kitoblar yoziladi. Kurashchilar ilmning boshqa sohalarida ham mohir bo'lishadiki hatto ularning ilm majlislarida qatnashish huquqlarini ulamolar tan oladilr. Kitoblarni yod olib hatto kitoblarni nazmga solishgacha borib yetadilar. Bu Hirot ilm markazlarining ta'sirida kurash kabi boshqa sohalarning ham rivojlanganligini ko'rsatadi. Kurash tushuvchilarning tayyorgarlik ko'rishlari, ularning usullari haqida ma'lumotlar qiziqarli hisoblanadi.